

## **LEGAL BASIS OF JAPANESE CUSTOMS AND TARIFF LEGISLATION**

Rakhimov Sarvarbek

Senior teacher of the Refresher Training Faculty of the Customs Institute of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance, Major of the Customs Service

Nabijanov Abdulaziz G'ayratjon o'g'li

4<sup>th</sup> year cadet of the Customs Institute of the Customs Committee under the Ministry of Economy and Finance

### **ABSTRACT:**

This article provides detailed information on the basics of the Japanese legal system and national legislation, as well as the development and implementation of regulatory legal documents. Moreover, provides a detailed overview of the legal bases of the customs and tariff policy and the types of related normative legal acts.

**KEY WORDS:** The Imperial constitution of Japan, Meiji Constitution, Cabinet of Ministers, National Diet, Legislative Bureau of the Cabinet of Ministers, Customs Act, Tariff Act, Orders of the Customs and Tariffs Bureau, Notifications of the Customs and Tariffs Bureau, Decrees, Acts, Instructions.

**Yaponiya bojxona va tariff qonunchiligining huquqiy asoslari**

Rahimov Sarvarbek

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona Qo'mitasining Bojxona instituti  
Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti katta o'qituvchisi, bojxona xizmati  
mayori

Nabijonov Abdulaziz G'ayratjon o'g'li

Itisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona Qo'mitasining Bojxona instituti  
4-kurs kursanti

### **ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada Yaponiya huquq tizimi va milliy qonunchiligi, normativ-huquqiy hujjalarning ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi haqida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, bojxona va tariff siyosati asoslari hamda ularga oid normativ-huquqiy hujjalarning turlari yuridik jihatdan atriflicha sharxlangan.



**KALIT SO'ZLAR:** Yaponiya Imperiyasi Konstitutsiyasi, Meiji Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Milliy parlament, Vazirlar Mahkamasining Qonunchilik byurosi, Bojxona to'g'risidagi qonun, Boj tariffi to'g'risidagi qonun, Bojxona va tariflar byurosi buyuruqlari, Bojxona va tariflar byurosi xabarnomalari, farmonlar, qarorlar, ko'rsatmalar.

## **Правовые основы таможенно-тарифного законодательства Японии**

Рахимов Сарварбек

Старший преподаватель факультета переподготовки и повышения квалификации Таможенного института таможенного комитета при Министерстве экономики и финансов, майор таможенной службы

Набижанов Абдулазиз Гайратжан ўғли

Курсант 4 курса Таможенного института Таможенного комитета при Министерстве экономики и финансов

### **АННОТАЦИЯ:**

В этой статье представлена подробная информация об основах японской правовой системы и национального законодательства, а также о разработке и внедрении нормативных правовых документов. Кроме того, дается подробный обзор правовых основ таможенно-тарифной политики и видов связанных с ней нормативных правовых актов.



**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Конституция Японской империи, Конституция Мэйдзи, Кабинет министров, Национальный парламент, Законодательное бюро Кабинета министров, Закон о таможне, Закон о тарифах, Приказы Бюро таможни и тарифов, Уведомления Бюро таможни и тарифов, Указы, акты, инструкции.

### **KIRISH**

Yaponiya huquq tizimi shartli ravishda kodifikatsiyalangan huquqqa asoslangan fuqarolik-huquqiy tizim sifatida tasniflanadi. Yaponiya huquqi, birinchi navbatda, kontinental Yevropadagi fuqarolik tizimidan ilhomlangan bo'lib, u muayyan huquq sohasidagi asosiy huquqiy bazani belgilab beruvchi kodlashtirilgan statutlarga ("kodekslar") asoslangan. Konstitutsiya va beshta asosiy kodekslar (fuqarolik, fuqarolik protsessual, jinoiy, jinoiy protsessual va tijorat kodekslari) birgalikdagi

tizim roppó (beshta kodeks) deb ataladi va mamlakat qonunchilik asosini tashkil qiladi. Ular Germaniya huquq tizimi, kamroq darajada Fransiya huquq tizimi asosida shakillangan va shuningdek, Yaponiya sharoitlariga moslashgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan Yaponiya Konstitutsiyasi Yaponiyada oliv qonun hisoblangan, biroq, bugungi kunda 1800 ga yaqin boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari (serei) va Vazirlik buyruqlari (shorei) ko'rinishidagi minglab normativ hujjatlar bilan uyg'unlashgan. Shuningdek mamlakatda anglo-sakson huquq tizimiga oid sud pretsedenti instituti ham muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda huquqning har bir sohasida, shuningdek, qonunchilikni sharhlash va yangi qonunni samarali ishlab chiqadigan qonunchilik amaliyoti mavjud. Bundan tashqari, qayta ko'rib chiqilgan qonunchilik va savdoni tartibga soluvchi huquq sohasidagi ko'plab qoidalarga umumiy huquq tushunchalari, qoidalari va mavjud tartibga solish usullari katta ta'sir ko'rsatadi. Tom ma'noda Yaponiya bugungi kunda ko'pgina sanoatlashgan davlatlar huquqiy tizimlari singari, turli xil huquqiy institutlarning gibrildi tizimidir. Yaponiya qonunchiligi bugungi kunda tez o'zgarish va rivojlanishda davom etmoqda.

## **ASOSIY QISM**

Yaponiyada fuqarolik va umumiy huquq ta'sirining uyg'unlashuvi qonunlarni ishlab chiqish va qo'llashning zamonaviy yondashuvlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Nafaqat ko'plab xalqaro olimlar uchun, balki Yapon xalqi uchun ham Yaponiyada ishlab chiqilgan huquqiy tizimni tushunish murakkab jarayon hisoblanadi. Biz Yaponianing Konstitutsiyasi huquqiy iyerarxik jihatdan eng yuqori pog'onada ekanligini va u o'z ichiga qonunlar, vazirlar mahkamasi qarorlari, varizlik buyruqlari, davlat xabarnomalari kirishidan xabardormiz. Biroq, bu ko'p odamlar uchun chalkash bo'lishi mumkin: iyerarxik jihatdan Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari yoki vazirlik buyruqlarida qaysi biri yuqori? huquqiy tizimda ijro etuvchi buyruqlar va ijro etuvchi qoidalari qanday vazifa bajaradi? Yuqorida keltirilgan bunday savollar Yaponiya huquqiy tizimini tushunishni qiyinlashtiradi. To'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda quyida keltitilgan ketma-ketlik asosida bu murakkab jarayonni yoritib berishga harakat qilaman.

Yaponiya huquqiy tizimida ishlatilgan "qonunlar va qoidalari" ("laws and regulations" ("法令"[ho-rei])atamasini talqin qilishdan boshlaymiz. Yaponiya Milliy parlamenti kutubxonasi tomonidan taqdim etilgan tushuntirishga ko'ra, "qonunlar va qoidalari" atamasi o'z ichiga Konstitutsiya, shartnomalar, qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlarning buyruqlari, ommaviy



bildirishnomalar, qoidalar, agentlik buyruqlari, ko'rsatmalar va bildirishnomalar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, "qonunlar va qoidalar" ma'muriy huquqiy organlar tomonidan birgalikda chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni anglatadi.

Boshqa tomondan olib qaraganimizda, Yaponiya hukumati tomonidan taqdim etilgan "E-gov,, rasmiy veb-saytiga ko'ra "qonunlar va qoidalar" deganda "konstitutsiyalar, shartnomalar, qonunlar, imperator farmonlari, kabinet buyruqlari, idoralar va vazirliklarning farmoyishlari, qoidalar, bildirishnomalar, ko'rsatmalar, mahalliy hokimiyat organlari qarorlari" degan ma'noni anglatuvchi tushunchalar mavjud va bu hujjatlar belgilangan shaklda har bir vazirlik yoki agentlik tomonidan o'zining rasmiy veb-saytlarida taqdim etiladi. Shuningdek, "qonunlar va qoidalar" atamasini parlament tomonidan chiqariladigan qonunlarga va ma'muriy huquqiy organlar tomonidan ma'muriy buyruq sifatida chiqarilgan normativ hujjatlar orqali tushunishimiz mumkin. Misol uchun "Ma'muriy buyruqlar" deganda "Ma'muriy-protsessual akt" ning 2-moddasida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlarning buyruqlari va jamoat xabarnomalari" ni tushunishimiz lozim. Yuqorida ko'rinish turganidek, "qonun va qoidalar" atamasi turli doiralarda turlicha talqin qilingan va Yaponiya Konstitutsiyasida esa aynan keltirilmagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki biz qonunchilik tizimimizda qonun va qonun osti hujjatlar, ularni maqomi va ishlab chiqilish tartibi batafsli tushuntirilgan O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, unda normativ huquqiy hujjat turlari, qonun va qonun osti hujjatlariga nimalar kirishi aniq keltirilgan.

"Bojxona to'g'risida"gi qonun, "Bojxona tarifi to'g'risida"gi qonun va "Vaqtinchalik tarif chorralari to'g'risida"gi qonunlar bojxona tarif siyosati va bojxona ma'murchiligiga tegishli uchta asosiy qonun hujjatlaridir. Ayrim hollarda, istisno tariqasida ma'lum bir vaziyatlar uchun maxsus choralar zarur bo'lganda, Vaqtinchalik tariff chorralari to'g'risida" gi qonun, "Konteynerlar uchun maxsus choralar to'g'risidagi qonun" va "ATA konvensiyasi uchun maxsus choralar to'g'risida qonun" kabi normative hujjatlardan foidalaniladi.

Ushbu qonunlarni ijro etilishi yuzasidan zarur bo'lgan qonun osti hujjatlariga Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, vazirlik qaror va buyuruqlari yoki rasmiy xabarnomalar va ko'rsatmalar sifatida chiqariladi. Shuningdek, qonunlar va farmoyishlarning talqini va ijrosi yuzasidan Bojxona va tarif byurosi Bosh direktorining tomonidan ko'rsatm sifatidagi normative hujjatlar chiqariladi, ular



bojxona tartib-qoidalari ni butun mamlakat bo'y lab yagona tartibda amalga oshirish uchunishlab chiqiladi.

Yaponiya qonunchiliga ko'ra, Yaponiyaning xalqaro konventsiya bo'yicha majburiyatlar har doim ichki qonunlar va normalardan ustun turadi. Misol uchun, xalqaro shartnoma bo'yicha Yaponiya uchun tarif stavkalari milliy qonunchilik normalaridan past bo'lsa, Bojxona tarifi to'g'risidagi qonun yoki boshqa milliy qonunlarda nazarda tutilganidan ko'ra, xalqaro majburiy stavkalarga ustunlik beriladi.

Ushbu turdag'i xalqaro konventsianing yorqin namunasi sifatida "Jahon savdo tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi Marrokash kelishuvi"ning (JSTni ta'sis etish to'g'risidagi bitim) bir qismi bo'lgan "Tariflar va savdo bo'yicha 1994 yildagi Bosh kelishuv" (GATT 1994) hisoblanadi. Ikki tomonlama savdo shartnomalari boshqa misollardir. Agar maxsus sohalarda tariflarni pasaytirish va undan ozod qilish kabi masalalarni belgilovchi qoidalari ham hisobga olinsa, 90 ga yaqin tegishli xalqaro konventsialar mavjud. Ushbu ko'p tomonlama shartnomalar bo'yicha tarif stavkalari va boshqa qoidalari eng ko'p qulaylik rejimini qoidalari asosida qo'llaniladi.

Shu bilan birga, erkin savdo shartnomasi (FTA) bo'lib, u eng ko'p qulaylik rejimi qo'llaniladigan tarif rejimiga qaraganda ma'lum mamlakatlar mahsulotlariga imtiyozli tarif rejimini ta'minlaydi. "Yangi davrda hamkorligi bo'yicha Yaponiya-Singapur iqtisodiy kelishuvi" (2002-yil yanvar oyida imzolangan) Yaponiya va Singapur tomonidan imzolangan erkin savdo shartnomasi bo'lib, bojxona to'lovlar bo'yicha JST kelishuvlariga mos keladi.

Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarga o'xshab, bojxona to'lovlar bilan bog'liq bo'lmasada, Yaponiyaga kirib keladigan va chiqib ketadigan tashqi savdo kemalari port va ichki iste'mol soliqlari toifasiga kiradigan tonnaj yig'imi va maxsus tonnaj yig'imi undiradi. Ushbu soliqlar uchun alohida qonunlar mavjud, ammo ularni yig'ish uchun bojxona javobgardir.

Bundan tashqari, "Tashqi savdo va Valyuta nazorati to'g'risida"gi qonun, "Oziq-ovqat sanitariyasi to'g'risida"gi qonun va boshqa ko'plab milliy qonunlar va qarorlar ichki tartibni saqlash va jamoat sanitariyasi kabi sabablarga ko'ra yuklarni olib kirishga oid turli qoidalarni o'rnatdi. Davlat chegarasidagi nazorat organi sifatida bojxona ham ushbu qonunlarning import va eksport qoidalariiga rioya qilish holatini tasdiqlash uchun javobgardir.

Bojxona tarif siyosati va bojxona ma'muriyatiga taalluqli uchta asosiy qonunning qisqacha tavsifi quyida keltirilgan:



### ❖ **Bojxona qonuni**

Bojxona to'g'risidagi qonun bojxona ma'muriyatining asosiy qonuni bo'lib, 12 bobdan (196 modda) iborat. Qonun, bиринчи navbatda, soliqqa tortish va bojxona to'lovlarini undirish hamda import va eksport yuklarini bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq masalalarni belgilab beradi. Qonun, shuningdek, yuqorida qayd etilgan soliqqa tortish, bojxona rasmiylashtiruvi tegishli tartibda va uzlusiz tarzda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida kemalarning portga kirishi va rasmiylashtiruvi tartiblari, obligatsiyalar tizimi bilan bog'liq masalalarni hamda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jazo choralarini nazarda tutadi.

Soliqqa tortishga kelsak, Qonun soliq to'lovchilar va soliqqa tortiladigan tovarlarning turlarini, bojxona to'lovlarini belgilash, to'lovlarni to'lash muddatlarini belgilash va undirilgan bojxona to'lovlarini buxgalteriya hisobini yuritishni, shuningdek soliq summasini aniqlash va undirish usullarini nazarda tutadi, lekin soliqqa tortiladigan tovarlarning qiymatlarni aniqlash va alohida soliq solinadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan maxsus stavkalar "Bojxona tarifi to'g'risida" va "Vaqtinchalik tarif choralarini to'g'risida" gi qonunlarda belgilanadi.

Ushbu qonunga asosan Yaponiyada bojxona rasmiylashtiruvi tizimi oldindan ruxsat berish tizimiga asoslanadi, bunda hech qanday xalqaro yuk eksport uchun kemaga yuklanishi yoki bojxona organiga tegishli so'rov yuborilmaguncha va uni qondirmaguncha Yaponiyadagi qilinishi mumkin emas. Ushbu jarayon davomida import yoki eksport qilinadigan tovarlar zarur bo'lgan darajada bojxona ko'rigini va boshqa ichki qonunlar va qoidalar asosida olib kirish yoki eksport qilishning qonuniyligini tekshirish ham amalga oshiriladi.

### ❖ **Boj tariffi to'g'risidagi qonuni**

Bojxona tarifi to'g'risidagi qonun 42 moddadan iborat bo'lib, Bojxona tariflari jadvali va Yaponiyaga kiruvchi shaxslar uchun soddalashtirilgan boj stavkalari ro'yxati qonunning (I-ILOVA) sida va kichik hajmdagi import uchun tariff stafkalari (II-ILOVA) sida keltirilgan.

Ushbu qoidalar tarif stavkalarini, bojxona to'lovlarini hisoblash, kamaytirish, ozod qilish va to'lash, antidemping va boshqa maxsus bojxona to'lovlarini tizimlari va boshqalar uchun asos sifatida ko'rib chiqiladigan qiymatlarni qo'llashni nazarda tutadi.

Bojxona tariflari jadvali qonunning muhim qismini tashkil etadi, JST tomonidan yaratilgan Uyg'unlashgan tizim konventsiyasi bo'yicha tasnifga asoslanib, Jadval 7000 ga yaqin tarif ob'ektlarini qamrab oladi, Jadvalda belgilangan stavkalar odatda



"umumiylar" deb nomlanadi. Yaponiyaga keluvchi sayohlarning bagaji va kuzatib boriladigan yuklarni rasmiylashtirishni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida Soddalashtirilgan boj stavkalar ro'yxati Bojxona tariflari jadvaliga 1-ustunida, Yaponiyaga kiruvchi shaxslar uchun soddalashtirilgan boj stavkalar ro'yxatida keltirilgan (I-ILOVA). Ushbu stavkalar Bojxona tarif jadvaliga qaraganda ancha sodda, chunki tovarlarning ma'lum bir katta toifasi yagona stavka (bojxona to'lovlari va aktsiz solig'ining jamlangan stavkalar asosida hisoblangan) qo'llaniladigan yagona nom ostida guruhlangan. II-ILOVAda keltirilgan boshqa ro'yxatdagi soddalashtirilgan bojxona to'lovlari stavkalar umumiylar bojxona qiymati 100 000 iyendan oshmaydigan import qilinadigan tovarlarga (shu jumladan pochta jo'natmalariga) nisbatan qo'llaniladi, bu esa soddalashtirilgan tartiblar orqali tezroq rasmiylashtirish imkonini beradi.

### ❖ **Vaqtinchalik tarif choralari to'g'risidagi qonun**

Vaqtinchalik tarif choralari to'g'risidagi qonunda, bиринчи navbatda, tarif stavkalar bilan bog'liq bo'lган "Bojxona tarifi to'g'risida"gi qonundan istisnolar hamda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'zgarishlarga qisqa muddatli asosda bojxona to'lovlarini kamaytirish, ozod qilish va qaytarish nazarda tutilgan. U 29 ta moddadan iborat bo'lib, unga ilova qilingan tarif jadvallari 1 dan 4 gacha.

Vaqtinchalik bojxona to'lovlari stavkalar jami 10 ta jadvalda belgilanadi: 1, 1-3, 1-3-2, 1-6, 1-7, 1-8, 2, 3, 4 va 5. 1-jadvalda (taxminan 312 ta band) va 1-3 (125 ta band) bo'yicha tarif kvotasiga taalluqli moddalar bo'yicha birlamchi stavkalar va moddalar bo'yicha bosqichma-bosqich pasaytirilgan stavkalar nazarda tutilgan. Ushbu jadvallar stavkalar odatda mos keladigan umumiylar tariflardan past bo'lган bir qator elementlarni o'z ichiga oladi. Ushbu stavkalar "umumiylar" dan farqli ravishda "vaqtinchalik stavkalar" deb nomlanadi. Agar ma'lum bir tovar uchun umumiylar va vaqtinchalik stavkalar belgilansa, vaqtinchalik stavka har doim umumiylar stavkadan ustun turadi. Boshqa jadvallar Umumiylar imtiyozlar tizimiga (GSP) tegishli.

Yaponiyada umumiylar va vaqtinchalik stavkalardan tashqari, bir qator JST konvensiyalarining bandlarda nazarda tutilgan imtiyozli stavkalariga bo'y sunadi. Yuqorida Shartnomaga ustunlik berish tamoyilidan kelib chiqqan holda, JSTning majburiy stavkalar umumiylar va vaqtinchalik stavkalardan (keyingi o'rnlarda ichki qonunchilik stavkalar deb yuritiladi) ustunlik bilan qo'llaniladi. Biroq, agar JSTning majburiy stavkalar mahalliy qonunchilik stavkalaridan yuqori bo'lsa, ikkinchisi qo'llaniladi.



Misol uchun, “Yangi davrda hamkorligi bo‘yicha Yaponiya-Singapur iqtisodiy kelishuvi” doirasida GATT ning 24-8 bandida nazarda tutilgan erkin savdo hududining barcha shartlarini bajaradi. Shunday qilib, Yaponiya JST kelishuvlari doirasida qo’llaniladigan Eng ko‘p qulaylik rejimi tariflari o‘rniga Singapurdan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga maxsus imtiyozli tariflarni qo’llashi mumkin. Agar ushbu ikki tomonlama bitimda belgilangan stavkalar (Singapur stavkalari) Yaponiyada qo’llaniladigan Eng ko‘p qulaylik rejimi stavkalaridan pastroq bo’lsa (JST chegara stavkalari va ichki qonunchilik stavkalarining pastligi), Singapur stavkalari ustuvorlik beriladi.

#### ❖ **Yaponiyada bojxona va tariflar byurosi buyruqlari**

Yaponiyada bojxona va tariflar byurosi bojxona va tarif to‘g‘risidagi qonunlari va normalarni bajarilishi uchun javobgardir. Byuro ushbu qonunlar va normalarni amalga oshirish uchun turli xil buyruqlar chiqaradi. Yaponiyadagi bojxona va tarif byurosi tomonidan quyidagi yo’nalishlarda buyruqlari chiqariladi:

**1. Bojxona buyruqlari:** Bojxona buyruqlari bojxona qonunlari va qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha bat afsil ko‘rsatmalar berish uchun Bojxona va tarif byurosi tomonidan chiqariladi. Bu buyruqlari import va eksport tartiblari, bojxona qiymati, bojxona rasmiylashtiruvni kabi keng ko‘lamli mavzularni qamrab oladi.

**2. Tarif buyruqlari:** Tarif buyruqlari bojxona-tarif byurosi tomonidan tarif jadvaliga kiritilgan o‘zgartirishlar yuzasidan chiqariladi. Ushbu buyruqlarda yangi tarif stavkalari ko‘rsatilgan va o‘zgartirishlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

**3. Aktsiz solig‘i to‘g‘risidagi buyruqlari:** Aktsiz solig‘i bo‘yicha buyruqlari bojxona va tarif byurosi tomonidan aktsiz solig‘i bo‘yicha qonunlar va me’yoriy hujjalarni amalga oshirish uchun chiqariladi. Ushbu buyruqlarda soliq stavkalari ko‘rsatilgan va soliqlarni undirish va to‘lash bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud.

**4. Iste‘mol solig‘i bo‘yicha buyruqlari:** iste‘mol solig‘i bo‘yicha buyruqlari iste‘mol solig‘i bo‘yicha qonun va qoidalarni amalga oshirish uchun Bojxona va tarif byurosi tomonidan chiqariladi. Ushbu buyruqlarda soliq stavkalari ko‘rsatilgan va soliqlarni undirish va to‘lash bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud.

**5. Boshqa buyruqlar:** Bojxona-tarif byurosi bojxona va tarif qonunlari va qoidalarni amalga oshirish uchun zaruratga qarab boshqa turdag‘i buyruqlar ham berishi mumkin. Ushbu buyruqlar savdo shartnomalari, bojxona surishtiruv va



tergov harakatlari hamda bojxona qoidalarini buzganlik uchun jazolar kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Yaponiyada bojxona va tarif byurosi tomonidan yuqorida keltirilgan qonunlar va buyruqlarning qo'llanilishi bojxona va tarif qonunlari va qoidalarini bajarish, noqonuniy faoliyatning oldini olish, aholi salomatligi va xavfsizligini himoya qilish va savdoni osonlashtirishda muhim rol o'yinaydi. Byuro tomonidan ushbu buyruqlar va boshqa bojxona va tarif qonunlari va qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun turli tartibda nazorat tekshirishlar o'tkazib turadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, mamlakatimiz bojxona qonunchiligi tizimida ishlab chiqiladigan Bojxona qo'mitasining buyruqlari sohasi va ko'lamenti kengaytirish orqali bojxona organlari ish samaradorligini oshirish, hamda bojxona xabarnomalari shaklidagi yangicha buyruqlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu tajribalarni milliy bojxona tizimiga joriy etishda, albatta milliy huquq tizimining rivojanish darjasи va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yondashish zarur (ko'r-ko'rona emas, albatta). Bundan tashqari, yuqorida tahlil qilingan qonunlarning sanksiyalarida sud-huquq tizimlari jinoyatchilikning oldini olish borasida katta yutuqlarga ershish imkonini bergen. Zero bu natijalarga erishishda mamlakatda o'rnatilgan huquq tizimi, odil sudlov instituti, qonun ustuvorligining amaliy ifodasi va albatta huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali faoliyatining roli kattadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Customs Act of Japan (Act No. 61 of 1954) - (electron manba) – URL: <https://www.kanzei.or.jp>
2. Customs Tariff Act (Act No. 54 of 1908) - (electron manba) – URL: <https://elaws.e-gov.go.jp>
3. Temporary Tariff Measures Act (Act No. 36 of 1960) - (electron manba) – URL: <https://elaws.e-gov.go.jp>
4. Yukiyasu Aoyama, the Director-General of Customs and Tariff Bureau, Ministry of Finance (MOF), Japan, - “Perspectives of customs in the 21st century: from the experiences of japan customs” - (electron manba) – URL: <https://www.researchgate.net>

5. Law enforcement at the border against illicit drugs and other illegal items - (elektron ma'nba) – URL: <https://www.customs.go.jp>
6. Ensuring Peoples' Security and Safety - (eletron manba) - URL: <https://www.customs.go.jp>
7. А. М. Николаев, - “Роль японской таможни в пресечении контрабанды оружия в страну” – (elektron manba) – URL: <https://cyberleninka.ru>
8. Brochure: - History of Japan Customs – (Internet ma'lumot) – URL: <https://www.customs.go.jp>
9. Анастасия Гаврилюк, - “Таможенная служба Японии в новом тысячелетии” – (internet resurs) – URL: - <https://elib.bsu.by/1>

